Mazkur tadqiqotning asosiy maqsadi raqamli iqtisodiyot sharoitida turizm industriyasini rivojlantirishning investitsion imkoniyatlarini va ulardan samarali foydalanish yo‘nalishlarini aniqlashdan iboratdir.

## MAVZUGA OID ADABIYOTLAR TAHLILI

Turizm industriyasi tushunchasi iqtisodiy adabiyotlarda olimlar va turli manbalarda tadqiqotchilar tomonidan turlicha talqin etilgan. Biroq, bugungi kunga kelib uning rivojlanish holati turizm industriyasining murakkab va yirik soha ekanligini ko‘rsatmoqda. Shu nuqtay nazardan Morozov M. A. boshchiligidagi olimlar guruhining ushbu atamaga bergan ta’rifi turizm industriyasi mazmunini imkon qadar to‘la xamrab olishga munosib tushunchani aks ettirganligini ko‘rish mumkin. “Turizm industriyasi – iqtisodiyotning yirik mustaqil majmuasi bo‘lib, uning tarmoqlari va korxonalari guruhidan iborat bo‘lib, ularning funksiyalari bo‘sh vaqtlarda ko‘ngil ochish va dam olishning har xil turlariga bo‘lgan tobora murakkablashgan va turli-tuman talabni qondirishga asoslanadi”[3].

Yana bir olim Kutepova G. N. bergan ta’rifga ko‘ra, “Turizm industriyasi – bu murakkab dinamik tizim bo‘lib, unda turoperatorlar va turagentlardan tashqari iste’molchiga xizmat ko‘rsatuvchi va shu bilan turizmni maxsus iqtisodiy hodisa sifatida imkon yaratadigan ko‘plab korxonalar mavjud”[4]. Bu tizim markazida u professional turizm ta’limini ko‘rgan holda, kadrlarni tayyorlash, qayta tayyorlasha, malakasini oshirish turizm sohasida yangi yo‘nalishlarni kashf etish va rivojlantirishda bosh omil sifatida baholaydi.

Turizm industriyasi sohasida tadqiqotlar olib borgan Maklashina L. R. uning yuqori daromadli va tez rivojlanib borayotgan sohalardan ekanligini ta’kidlaydi. “Zamonaviy turizm industriyasi jahon iqtisodiyotining eng yirik, eng daromadli va tez rivojlanayotgan sohalaridan biridir. Turizm xizmat ko‘rsatish sohasi sifatida mamlakat ichkarisida milliy daromadni qayta taqsimlashning muhim vositasi bo‘lib, iqtisodiyotning ko‘plab sohalarini rivojlantirishga multiplikatsion ta’sir ko‘rsatadi”[5].

Raqamli iqtisodiyot sharoitidagi jadal rivojlanish mamlakatlar o‘rtasidagi raqobatni yanada kuchaytirmoqda va bunga turizm industriyasi rivoji va undagi innnovatsiyalarning ham faol tatbiqi o‘z ta’sirini ko‘rsatmoqda. Shunga asoslanib, tadqiqotchi-olim, i.f.n. Xaydar Lotfi shunday xulosaga keladiki, “Bugungi kunda butun dunyoda sayyohlarni jalb qilish uchun alohida mamlakatlar o‘rtasida raqobat kuchayib bormoqda, bu esa turizm industriyasini joylashtirishning yangi usullarini izlashga olib keladi”[6]. Bu esa sohada raqamli texnologiyalarni jadal qo‘llash bilan bog‘liq elektron tijorat shakliga ham keng yo‘l ochib berilish imkoniyatlarini ham tadqiq etishni taqozo etadi.

Shunga ko‘ra, rus olimlari N. Morozova va M. Morozovlar zamonaviy turizm industriyasi yangi kompyuter texnologiyalarini joriy etilishi bilan ulkan o‘zgarishlarga ega bo‘lganligini, har qanday tashkilotni turistik biznes bozorida zamonaviy axborotlar texnologiyasidan foydalanilmasdan muvaffaqiyatli faoliyat ko‘rsatishi amaliyotda mumkin emasligini ta’kidlaydilar. Ular shunday asosli ilmiy xulosalarni beradiki, unga ko‘ra, turizm

2 https://www.interfax.ru/business/763066

3 Морозов М. А., Морозова Н. С., Карпова Г. А., Хорева Л. В. Экономика туризма: учебник. – М.: Федеральное агентство по туризму, 2014. – С. 28.

4 Кутепова Г. Н. Анализ рынка вакансий туроператорских и турагентских компаний г. Москвы. Индустрия туризма: возможности, приоритеты, проблемы и перспективы: сборник научных трудов XI Международной научно-практической конференции. – 5–6 декабря 2018 г. – М.: Московский государственный институт индустрии туризма имени Ю. А. Сенкевича, 2018. –С. 80.

5 Маклашина Л. Р. Деловой туризм – инструмент продвижения индустрии туризма. // Актуальные вопросы экономических наук: материалы междунар. науч. конф. – (г. Уфа, июнь 2011 г.). / Под общ. ред. Г. Д. Ахметовой. – Уфа: Лето, 2011. – С. 122. // ISBN 978–5–87308–044–1.

6 Хайдар Лотфи. Экономико-географические особенности развития и размещения туристической индустрии Ирана (на примере провинции Хормозган). – Дисс. на соис. уч. ст. кан-т географических наук. – Душанбе: Таджикский государственный педагогический университет имени Садриддина Айни. – 2018. – С. 3.

mahsulotini yaratish va sotish texnologiyasi xususiyati qisqa vaqt ichida transport vositalariga erishish va turistlarni joylashtirish imkoniyatlari haqida ma`lumotlarni taqdim etish, joylarni tez bron qilish va rezervlashni ta'minlash, turistik xizmatlar (chiptalar, hisoblar va yo'nalish bo'yicha ko'rsatma, yo'l xaritalari kabi hujjatlarni parallel rasmiylashtirish, hisob-kitob va ma'lumotnomali axborotlar bilan ta'minlash va sh.k.lar)ni taqdim etishdagi qo'shimcha vazifalarni hal etishni avtomatlashgan tarzda ta'minlaydigan tizimlarni yaratishni talab etadi. Ushbu natijaga esa tizimda axborotni qayta ishlash va uzatish uchun zamonaviy kompyuter texnologiyalaridan keng foydalanish sharoitidagina erishish mumkin. Turizm industriyasi shunchalik ko'p turli va ko'p qirraliki, u turli axborot texnologiyalarini qo'llovchi alohida holdagi turistik firma yoki otel ishini avtomatlashni ta'minlovchi maxsus dasturiy vositalarni yaratishdan to global kompyuter tarmoqlaridan foydalanishni ham talab etadi.

Turizm sohasiga yo'naltiriladigan investitsiyalar o'ziga xos jihatlarga ega bo'lib, unga oid masalalar Bogolyubov V. S., S. A. Выстров, Bogolyubova S. A. tomonidan atroflicha o'rganilgan. Ushbu mualliflar jamoasi turizmda investitsiyalar tushunchasiga shunday ta'rif beradi: "Turizmga xos investitsiya deganda mamlakat ichkarisidagi singari tashqarisida ham qo'yilgan mablag'dan kerakli miqdordagi foydani olish maqsadida moliyaviy resurslardan turizm sohasida uzoq vaqt muddatli (bir yildan ortiq muddatga) kapital qo'yilmalar shaklida foydalanishni anglatadi. Boshqacha qilib aytganda, turizmga investitsiyalar – kapital yordamida yangi turistik obyektlarni yaratish, modernizatsiyalash yoki muayyan turdagi turistik xizmatlarni ishlab chiqaruvchi va taqdim etishga qodir bo'lgan mavjudlarini rekonstruksiya qilish, shuningdek, nomoddiy aktivlar (ixtirolar, nou-xau va sh.k.lar) ni yaratish sifatida o'zini namoyon etadi. Shunday qilib, turistlarga xizmat ko'rsatish sifatini yaxshilashda katta hajmdagi turistik xizmatlarni ishlab chiqarish va taqdim etishga qodir bo'lgan yangi turistik obyektlarni yaratish g'oyalarini moddiylashtirish jarayoni kechmoqda"[7].

Tadqiqotchilar e'tiborini turizm sanoatining kapitalni ko'p talab qiladigan qismi sifatida turistik korxonalarning, asosan, mehmonxonalarning investitsiya faoliyatini baholashning ayrim jihatlari jalb qiladi[8].

Shunisi e'tiborliki, Xitoy xalqi dunyo bo'yicha ichki va tashqi eng ko'p turistik sayohat qiluvchi mamlakat hisoblanadi. Shu sababdan bugungi kunda Xitoy ichki va tashqi turizmni rivojlantirish maqsadida mehmonxonalarni qurish, turlarini ko'paytirish, ularda xizmat ko'rsatish va qabul qilishda turli usullarni qo'llashda yangi innovatsion g'oyalardan foydalanishga katta e'tibor qaratilmoqda[9].

Turizm industriyasining salohiyati yuqori bo'lib, u inson kapitalini rivojlantirish va undan samarali foydalanishda ham muhim ahamiyatga ega. Bu masalada muallif D. M. Abduraimov o'z maqolasida quyidagi ilmiy-tadqiqot xulosalarini bayon etgan: "Turizm sohasi inson salohiyati rivojlanishining muhim omili bo'lib bormoqda. Shunday ekan, bu muayyan mamlakat yoki hududda yangi ish o'rinlarining yaratilishi, qo'shimcha investitsiyalarning jalb qilinishi, soliq tushumlarining oshishi, madaniy, tarixiy va tabiiy boyliklarni saqlash hamda oqilona foydalanishda o'z aksini topmoqda"[10].

Yuqorida ko'rib o'tilgan mutaxassislarning fikriga ko'ra, turizm industriyasini rivojlantirish mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy faoliyati va xalqaro integratsiyasini rivojlanishiga bevosita ta'siri yuqori ekanligi asoslab berilgan. Bunda mavjud imkoniyatlarni to'la ishga solishda investitsiyalar asosiy omil sifatida maydonga chiqadi.

## TADQIQOT METODOLOGIYASI

Raqamli iqtisodiyot sharoitida turizm industriyasini rivojlantirishning investitsion imkoniyatlarini va undan foydalanishning ahamiyatini o'rganish metodologiyasi qo'llanilib, bu borada muxatassis va olimlar yondashuvlari va fikrlarini o'rgangan holda kuzatish, iqtisodiy guruhlash, omillarni tahlil qilish, qiyoslash, emperik tadqiqot, tizimli va qiyosiy tahlil hamda ekspert baholash kabi umumiy ilmiy tahlil qilish metodlardan foydalanilgan. Shuningdek, respublikamiz turizm industriyasini 2025-yilgacha rivojlantirishda investitsiyalardan foydalanish yo'nalishlarining ustivor vazifalariga oid xulosalar qilingan va investitsiyalar asosida uni takomillashtirishga oid aniq tavsiyalar ishlab chiqilgan.

## TAHLIL VA NATIJALAR

So'nggi yillarda turizm dunyo iqtisodiyotida eng jadal rivojlanayotgan tarmoqlardan biriga aylandi. Turizmning jahon eksportidagi ulushi oziq-ovqat sanoati va avtomobilsozlikni ortda qoldirib ketdi hamda kimyo mahsulotlari va yonilg'i savdosidan keyin uchinchi o'ringa chiqib oldi[11].

7 Боголюбов В. С., С. А. Быстров, Боголюбова С. А. Экономическая оценка инвестиций в развитии туризма: учеб. пособие. – М.: Академия, 2009. – С. 6.
8 Балабанов И. Т., Балабанов А. И. Экономика туризма: учебное пособие. – М.: Финансы и статистика, 2000. – С. 35–36.; Гулямов В. Г., Селиванов И. А. Туризм: экономика, управление, устойчовое развитие. – М.: Российская международная академия туризма. Советский спорт, 2008. – С. 215–216.
9 Barnabe Walheer, Linjia Zhang. Profit Luenberger and Malmquist-Luenberger indexes for multi-activity decision-making units: The case of the star-rated hotel industry in China //International Journal of Tourism Management. Pages 1–604 (December 2018) rr.1–11.
10 Abduraimov D. M. Turizm infratuzilmasi tarkibiy qism elementlari va funksiyalari. // "Iqtisod va moliya" jurnali, 2021. – №2 (138). B. 17.
11 Markaziy Osiyoning investitsiya salohiyati. 17.04.2019-y. https://uzanalytics.com/iqtisodi%D0%B5t/4448/.

Shu nuqtay nazardan so'nggi yillarda O'zbekistonning mavjud tabiiy, geografik, tarixiy, madaniy, ma'naviy, etnografik, milliy boyliklari, meros va shart-sharoitlarini hisobga olgan holda mamlakatda turizm industriyasini rivojlantirish va unda raqamli texnologiyalar samaradorligini oshirishga alohida e'tibor qaratib kelinmoqda. Xususan, 2019-yil 18-iyulda O'zbekiston Respublikasining "Turizm to'g'risida"gi O'RQ–549-sonli Qonuni qabul qilindi, shuningdek, turizm sohasiga oid bevosita va bilvosita aloqador bo'lgan 60 dan ortiq huquqiy-me'yoriy hujjatlar qabul qilinib, ijroda amal qilinmoqda.

O'zbekistonda turizm industriyasini jadal rivojlantirish raqam iqtisodiyot salohiyatini oshirishga ko'p jihatdan bog'liq. Shu munosabat bilan mamlakatimizda raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish O'zbekiston uchun kelgusi yillarda eng dolzarb va ustuvor yo'nalishlaridan biri bo'lib qolmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Prezident Shavkat Mirziyoyev parlamentga yo'llangan Murojaatnomalarida ta'kidlaganidek, "Taraqqiyotga erishish uchun raqamli bilimlar va zamonaviy axborot texnologiyalarini egallashimiz zarur va shart. Bu bizga yuksalishning eng qisqa yo'lidan borish imkoniyatini beradi. Zero, bugun dunyoda barcha sohalarga axborot texnologiyalari chuqur kirib bormoqda.

... Albatta, raqamli iqtisodiyotni shakllantirish kerakli infratuzilma, ko'p mablag' va mehnat resurslarini talab etishini juda yaxshi bilamiz. Biroq, qanchalik qiyin bo'lmasin, bu ishga bugun kirishmasak, qachon kirishamiz?! Ertaga juda kech bo'ladi. Shu bois, raqamli iqtisodiyotga faol o'tish – kelgusi 5 yildagi eng ustuvor vazifalarimizdan biri bo'ladi.

Raqamli texnologiyalar nafaqat mahsulot va xizmatlar sifatini oshiradi, ortiqcha xarajatlarni kamaytiradi. Shu bilan birga, meni juda qattiq tashvishga soladigan va bezovta qiladigan eng og'ir illat – korrupsiya balosini yo'qotishda ham ular samarali vositadir. Buni barchamiz teran anglab olishimiz darkor"[12].

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 9-yanvarda qabul qilingan "O'zbekiston Respublikasining 2020–2022-yillarga mo'ljallangan investitsiya dasturini amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida" PQ–4563-sonli Qarorida respublikamizda bir qator yirik investitsiya loyihalarni amalga oshirishi belgilangan. Jumladan, 2020–2022-yil mobaynida axborot texnologiyalari va telekommunikatsiyalari sohasidagi loyihalarga 676,8 million dollarga teng investitsiyalarini jalb qilinishi rejalashtirilgan. Ya'ni:

- 2020-yilda umumiy qiymati 178,7 mln. AQSh dollari, shundan to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar – 139,2 mln. AQSh dollari, davlat kafolati ostidagi kreditlar – 37,5 mln. AQSh dollari. "O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 9-yanvardagi PQ–4563-son Qarori bilan tasdiqlangan 2020-yilgi Investitsiya dasturiga muvofiq axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini rivojlantirish sohasi bo'yicha 2020-yil davomida tasdiqlangan barcha investitsiya loyihalari amalga oshirilib, belgilangan reja ortig'i bilan bajarilishiga erishildi"[13];
- 2021-yilda umumiy qiymati 241,7 mln. AQSh dollari, shundan to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar – 171,9 mln. AQSh dollari, davlat kafolati ostidagi kreditlar – 67,7 mln. AQSh dollari;
- 2022-yilda esa loyhalarning umumiy qiymati 256,4 mln. AQSh dollariga teng mo'ljallangan bo'lsa, shulardan 180,1 mln. AQSh dollarini to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar, davlat kafolati ostidagi kreditlar yesa 73,1 mln. AQSh dollarini jalb qilinishi ko'zda tutilgan.

Ta'kidlash kerakki, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 28-apreldagi "Raqamli iqtisodiyot va elektron hukumatni keng joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida" PQ–4699-sonli Qaroriga muvofiq 2020–2022-yillarda axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini rivojlantirish bo'yicha umumiy qiymati 17,6 trln. so'm bo'lgan 35 ta ustuvor loyihalar amalga oshirilishi belgilangan.

Mazkur loyihalarning 44,8 foiz to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar va kafolatlanmagan kreditlar hisobidan, 33 foiz davlat kafolati ostidagi kreditlar hisobidan amalga oshirilishi rejalashtirilgan.

Erishilgan mazkur amaliy natijalar turizm industriyasini raqamli texnologiyalar asosida yanada faol rivojlantirishda muhim ahamiyat kasb etmoqda[14].

Zero, rsepublikamiz Prezidenti Sh. Mirziyoyev ta'birlari bilan aytganda, "...turizmni rivojlantirish, sohaga investitsiyalar jalb etish, kadrlar salohiyatini oshirish bo'yicha kompleks choralar ko'rishimiz lozim"[15]. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 13-avgustdagi "O'zbekiston Respublikasida turizm sohasini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF–5781-sonli Farmoni turizm infratuzilmasidagi mavjud muammolarni hal etish, taqdim etilayotgan xizmatlar sifatini oshirish va jahon bozorlarida milliy turizm mahsulotlarini faol targ'ib qilish, turizm tarmog'ining kadrlar salohiyatini kuchaytirish orqali turizm sohasida amalga oshirilayotgan islohotlar samaradorligini oshirish hamda respublikaga kirib kelayotgan xorijiy fuqarolar sonini keskin ko'paytirish maqsadida qabul qilinib, uning asosida 2019–2025-yillarda O'zbekiston Respublikasida turizm sohasini rivojlantirish Konsepsiyasi va uning asosiy yo'nalishlari tasdiqlandi.

12 O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga murojaatnomasi. 24.01.2020-y. // https://nrm.uz.
13 2020-yil davomida qator investitsiya loyihalari reja bo'yicha bajarildi. 05.02.2021-y. // https://mitc.uz/uz/news/2158
14 Axborot texnlogiyalari sohasiga investitsiyalar. // https://mitc.uz/uz/pages/inves_tory
15 O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga murojaatnomasi. 28.12.2018 y. // http://uza.uz/oz/politics/zbekiston-respublikasi-prezidenti-shavkat-mirziyeevning-oliasy–28–12–2018.

2019–2025-yillarda O‘zbekiston Respublikasida turizm sohasini rivojlantirish Konsepsiyasi asosida kelgusi 2021–2025-yillar davomida turizm industriyasida quyidagi rivojlanishlarga erishish ko‘rsatkichlari belgilangan (1-jadval).

1-jadval: O‘zbekiston Respublikasida turizm sohasini rivojlantirish Konsepsiyasini kelgusi 2021–2025-yillar amalga oshirish maqsadli ko‘rsatkichari[16]

| № | Ko‘rsatkichlar nomi | 2021-y. | 2022-y. | 2023-y. | 2024-y. | 2025-y. |
|---|---|---|---|---|---|---|
| 1. | O‘zbekistonga tashrif buyuradigan xorijiy turistlar soni, ming kishi | 8410 | 10010 | 10600 | 11250 | 11810 |
| 2. | Turizm xizmatlari eksporti, mln. AQSh dollari | 1620 | 1900 | 2000 | 2080 | 2170 |
| 3. | Ichki turistlar soni, ming kishi | 18806 | 20317 | 21867 | 23404 | 25010 |
| 4. | Mehmonxonalar va shu kabi joylashtirish vositalari soni, dona | 2200 | 2600 | 2800 | 2900 | 3050 |
| 5. | Joylashtirish vositalaridagi xonalar soni, mingta | 47 | 55 | 59 | 62 | 64 |
| 6. | Joylashtirish vositalaridagi o‘rinlar soni, ming ta | 95 | 110 | 122 | 124 | 128 |
| 7. | Turoperatorlar soni, nafar | 1250 | 1320 | 1390 | 1420 | 1450 |

1-jadval ma’lumotlari 2025-yil yakunida O‘zbekistonga tashrif buyuradigan xorijiy turistlar soni 11810 kishini tashkil etishi, turizm xizmatlari eksporti esa 2170 mln. AQSh dollarini tashkil etishi, ichki turistlar soni esa 25010 kishiga yetishi ko‘zda tutilgan. Mazkur O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 13-avgustdagi PF–5781-sonli Farmoni asosida 2020-yil uchun ham 1-jadvaldagi ko‘rsatkichlar asosida maqsadli rejalar belgilangan bo‘lib, biroq, COVID–2019 koronavirus pandemiyasi sababli ushbu 2020 yilda O‘zbekistonga tashrif buyurishi ko‘zda tutilgan 7010 ming kishilik xorijiy turistlar o‘rniga 1,5 mln. kishi kelishi, turizm xizmatlari eksportini esa 1360 mln. AQSh dollariga olib chiqish o‘rniga 261 mln. AQSh dollarini tashkil etishi, 17230 ming kishilik ichki turistlar tashrifi o‘rniga 1,8 mln. kishi tashrifi ta’minlangan. O‘z nabatida, 1-jadval ko‘rsatkichlari asosida 2019-yil uchun rejalashtirilgan xorijiy turistlar oqimi 6041 ming kishi o‘rniga 6748,5 ming kishi tashrifiga, turizm xizmatlari eksportini 1180 mln. AQSh dollariga yetkazish o‘rniga 1313,0 mln. AQSh dollariga yetkazilishiga erishildi, ammo, ichki turistik oqimning rejadagi 16100 ming kishi o‘rniga amalda 14748,0 ming kishiga tushib ketishiga olib kelindi.

O‘tkazilgan tahlillar shuni ko‘rsatadiki, O‘zbekistonda turizm industriyasini rivojlantirishda tashkiliy-huquqiy jihatdan qanchalik davlat tomonidan ko‘p e’tibor va imkoniyat berilayotganiga qaramay, unga yo‘naltirilayotgan investitsiyalar hajmida kutilganidek samaralar kuzatilmayapti.

Bu holat turizm industriyasiga yo‘naltirilgan investitsiyalarning mamlakat YaIM hajmiga nisbatan egallagan ulushida yanada ravshanlik kasb etgan. Xususan, tahlil etilgan davrning so‘nggi yiliga kelib turizm industriyasiga yo‘naltirilgan investitsiyalarning YaIMdagi ulushi eng kichik – 0,3 foizni tashkil etgan. Mazkur holatlar mamlakatda turizm industriyasini yanada rivojlantirish va unga investitsiyalarni faol jalb etish masalasiga jiddiyroq e’tibor qaratish lozimligini ko‘rsatadi.

O‘z navbatida, turizm industriyasiga yo‘naltirilgan investitsiyalarning ijtimoiy-iqtisodiy samaralarini ham tahlil etish maqsadga muvofiqdir. Buni 3-jadval ma’lumotlari asosida ko‘rib chiqish o‘rinlidir.

## XULOSA VA TAKLIFLAR

O‘zbekistonda “Raqamli O‘Zbekiston – 2030 Strategiyasi”da belgilangan vazifalardan kelib chiqib, raqamli iqtisodiyotning turizm industriyasida ham rivojlanishini ta’minlash hamda buning uchun zarur bo‘lgan investitsiyalarning faol jalb etilishiniga erishish chorlarini ko‘rish lozim.

Olib borilgan tadqiqotlar asosida respublikamizda raqamli iqtisodiyot sharoitida turizm industriyasini yanada rivojlantirishning investitsion imkoniyatlarini oshirish maqsadida quyidagi tadbirlarni amalga oshirish muhim deb hisoblaymiz:

1. Turizm industriyasi taraqqiyotida davlat-xususiy sherikchilik amaliyotini va shu asosda sohaga xususiy investitsiyalar oqimini kuchaytirish lozim.
2. Turizm industriyasida raqamli texnologiyalar va platformalar asosida zamonaviy xizmat ko‘rsatish tizimini yaratish zarur. Bunda xorijiy tajribalardan kelib chiqib, mehmonxonalar o‘rtasidagi raqamli xizmat aloqalari tizimini yaratish lozim. O‘zbekistonda bu tizimni shakllantirishga hali yetarli darajada e’tibor qaratilmagan. Bu esa turistlarning o‘z manzillarida o‘zgarishlar bo‘lgan taqdirda mehmonxonalarda joylashishdagi noqulayliklarni bartaraf etishda o‘ta muhim hisoblanadi.

16 O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 13 avgustdagi “O‘zbekiston Respublikasida turizm sohasini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF–5781-sonli Farmoni. // www.lex.uz

3. O‘zbekistonda shahar va shaharlararo harakatlanishida zarur bo‘lgan sanitariya-giniena shaxobchalarini tashkil etish va unda xizmat ko‘rsatish sifatini oshirish lozim.
4. Xorijiy tajribalardan kelib chiqib, turistlar uchun har bir shaharda avtomobillari ijarasi markazlarini tashkil etish maqsadga muvofiqdir.
5. Mehmonxonalar, ko‘ngil ochish va dam olish maskanlarida bepul Wi-Fi zonalar tashkil etish zarur.
6. Xorijiy turistlarga sifatli xizmatlarni ko‘rsatish maqsadida joylarda xodimlarga turizm madaniyati va xorijiy tilda muloqot ko‘nikmalarini o‘rgatuvchi o‘quv markazlari faoliyatini yo‘lga qo‘yish maqsadga muvofiqdir.

Xulosa qilib aytganda, mamlakatimizda turizm industriyasini rivojlantirishda investitsiyalar va raqamli texnologiyalardan samarali foydalanish imkoniyatlarimiz yuqori bo‘lib, ulardan samarali foydalanish ichki va tashqi turzstik oqimni yanada kuchaytirish bilan birga O‘zbekistonning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi va xalqaro integrsiyasini faollashtirishda muhim omil bo‘lib xizmat qiladi.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**


1. Abduraimov D. M. Turizm infratuzilmasi tarkibiy qism elementlari va funksiyalari. // “Iqtisod va moliya” jurnali, 2021. – №2 (138). 16–24 betlar.
2. Axborot texnlogiyalari sohasiga investitsiyalar. // https://mitc.uz/uz/pages/inves_tory
3. Балабанов И. Т., Балабанов А. И. Экономика туризма: учебное пособие. – М.: Финансы и статистика, 2000. – 173 с.
4. Barnabe Walheer, Linjia Zhang. Profit Luenberger and Malmquist-Luenberger indexes for multi-activity decision-making units: The case of the star-rated hotel industry in China //International Journal of Tourism Management. Pages 1–604 (December 2018) pp.1–11.
5. Боголюбов В. С., С. А. Быстров, Боголюбова С. А. Экономическая оценка инвестиций в развитии туризма: учеб. пособие. – М.: Академия, 2009. – 272 с.
6. Гулямов В. Г., Селиванов И. А. Туризм: экономика, управление, устойчовое развитие. – М.: Российская международная академия туризма. Советский спорт, 2008. – 280 с.
7. Кутепова Г. Н. Анализ рынка вакансий туроператорских и турагентских компаний г. Москвы. Индустрия туризма: возможности, приоритеты, проблемы и перспективы: сборник научных трудов XI Международной научно-практической конференции. – 5–6 декабря 2018 г. – М.: Московский государственный институт индустрии туризма имени Ю. А. Сенкевича, 2018. –73–86 стр.
8. Маклашина Л. Р. Деловой туризм – инструмент продвижения индустрии туризма. // Актуальные вопросы экономических наук: материалы междунар. науч. конф. – (г. Уфа, июнь 2011 г.). / Под общ. ред. Г. Д. Ахметовой. – Уфа: Лето, 2011. –122–124 стр. ISBN 978–5–87308–044–1.
9. Markaziy Osiyoning investitsiya salohiyati. 17.04.2019 y. https://uzanalytics.com/iqtisodi%D0%B5t/4448/.
10. Морозов М. А., Морозова Н. С., Карпова Г. А., Хорева Л. В. Экономика туризма: учебник. – М.: Федеральное агентство по туризму, 2014. – 320 с.
11. Хайдар Лотфи. Экономико-географические особенности развития и размещения туристической индустрии Ирана (на примере провинции Хормозган). – Дисс. на соис. уч. ст. кан-т географических наук. – Душанбе: Таджикский государственный педагогический университет имени Садриддина Айни. – 2018. – 201 с.
12. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga murojaatnomasi. 24.01.2020-y. // https://nrm.uz.
13. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga murojaatnomasi. 28.12.2018-y. // http://uza.uz/oz/politics/zbekiston-respublikasi-prezidenti-shavkat-mirziyeevning-oliasy–28–12–2018.
14. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 13-avgustdagi “O‘zbekiston Respublikasida turizm sohasini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF–5781-sonli Farmoni. // www.lex.uz
15. O‘zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo‘mitasi. // https://stat.uz.
16. O‘zbekiston Respublikasi Turizm va sport vazirligi. // https://minsport.uz/uz/ministry
17. 2020-yil davomida qator investitsiya loyihalari reja bo‘yicha bajarildi. 05.02.2021-y. // https://mitc.uz/uz/news/2158
18. http://www.fingramota.org/teoriya-finansov/item/2198-chto-takoe-tsifrovaya-ekonomika
19. https://www.interfax.ru/business/763066

Jurnal sayti: https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz

Yashil IQTISODIYOT va TARAQQIYOT
Ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ilmiy, ommabop jurnal

**Ingliz tili muharriri:** Feruz Hakimov

**Musahhih:** Xondamir Ismoilov

**Sahifalovchi va dizayner:** Iskandar Islomov

**2023. № 10**

© Materiallar koʻchirib bosilganda “Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnali manba sifatida koʻrsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar maʼsul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga
maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.
Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.
El.Pochta: sq143235@gmail.com
Bot: @iqtisodiyot_77
Тел.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna boʻlishingiz mumkin. Obuna boʻlgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga toʻlov haqidagi maʼlumotni skrinshot yoki foto shaklida joʻnatishingizni soʻraymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga joʻnatamiz.

“Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnali 03.11.2022-yildan
Oʻzbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi
Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan
№566955 reyestr raqami tartibi boʻyicha roʻyxatdan oʻtkazilgan.
**Litsenziya raqami:** №046523. PNFL: 30407832680027

**Manzilimiz:** Toshkent shahar, Mirzo Ulugʻbek tumani
Kumushkon koʻchasi, 26-uy.

Jurnalning ilmiyligi:

“Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnali

Oʻzbekiston Respublikasi Oliy taʼlim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi rayosatining 2023-yil 1-apreldagi 336/3-sonli qarori bilan roʻyxatdan oʻtkazilgan.